YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI
Volume 5 Issue 7 Noyabr 2026
https://phoenixpublication.net/ Online ISSN: 3030-3494

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA MANZARA JANRI

Bozorov Erkin Jumanazarovich
K. Behzod nomidagi MRDI Tasviriy san’at fakulteti chizmachilik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janrining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, uning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari hamda milliy rangtasvir maktabidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, taniqli o‘zbek rassomlarining ijodi, tabiat tasvirining badiiy talqini va milliy koloritning ifodalanishiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so’zlar: *manzara janri, tasviriy san’at, rangtasvir, O‘zbekiston san’ati, milliy kolorit, tabiat, kompozitsiya, perspektiva, rassom, badiiy obraz.*

Manzara janri tasviriy san’atning muhim va keng qamrovli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda tabiat, shahar, qishloq, tog’, vodiy, daryo va boshqa tabiiy hamda me’moriy muhit ko‘rinishlari badiiy ifoda vositalari orqali aks ettiriladi. Mazkur janrning asosiy mohiyati borliqning tashqi ko‘rinishini tasvirlash bilangina cheklanmay, balki tabiatning inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri, uning estetik go‘zalligi va falsafiy mazmunini ochib berishdan iboratdir. Manzara asarlarida rassomning dunyoqarashi, tabiatga munosabati, ijodiy tafakkuri va individual badiiy uslubi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrda kompozitsiya, perspektiva, kolorit, yorug‘lik va soya munosabatlari hamda fazoviy kenglikni ifodalash asosiy tasviriy vositalar hisoblanadi. Shu sababli manzara rangtasviri nafaqat tabiat go‘zalligini aks ettiruvchi yo‘nalish, balki rassomning badiiy tafakkuri va estetik qarashlarini namoyon qiluvchi mustaqil ijodiy soha sifatida ham qadrlanadi.

O‘zbekiston hududida tabiat tasvirlariga murojaat qilish an’analari qadimiy tarixga ega bo‘lib, ular dastlab devoriy rasmlar, me’moriy bezaklar, amaliy san’at namunalari va Sharq miniatyura maktabida o‘z ifodasini topgan. Xususan, qadimgi Sug‘d va boshqa tarixiy hududlarda yaratilgan devoriy tasvirlarda tabiat unsurlari, daraxtlar, gullar, hayvonlar va me’moriy muhit badiiy kompozitsiyaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lgan. Biroq ushbu tasvirlarni zamonaviy manzara janri bilan to‘liq tenglashtirish mumkin emas, chunki ular ko‘pincha muayyan tarixiy, diniy yoki maishiy mazmunni ifodalashga xizmat qilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida Yevropa akademik rangtasvir an’analarining tarqalishi natijasida tabiatni mustaqil badiiy obyekt sifatida tasvirlashga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida professional rassomlik maktabining shakllanishi bilan O‘zbekiston manzara rangtasviri ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Bu tarixiy jarayon milliy badiiy an’analar bilan Yevropa rangtasvir tajribasining o‘zaro ta’siri asosida rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

XX asr O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixida manzara janrining mustaqil badiiy yo‘nalish sifatida rivojlanishi va takomillashishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda rassomlar mamlakatimizning tabiiy boyliklari, tarixiy shaharlari, qishloq xo‘jaligi hududlari va me’moriy yodgorliklarini tasvirlash orqali milliy manzara obrazini yaratishga intildilar. Ayniqsa, 1940–1960-yillarda O‘zbekiston rangtasvirida turli ijodiy yo‘nalishlar, jumladan, realizm, avangard va dekorativ ifoda usullarining o‘zaro ta’siri kuchaydi. Bu davrda manzara asarlarining mavzu doirasi kengayib, tabiat tasvirlari bilan bir qatorda inson mehnati, sanoat taraqqiyoti va yangi bunyodkorlik jarayonlari ham badiiy talqin qilina boshladi. Rassomlar tabiatni oddiy kuzatuv obyekti sifatida emas, balki tarixiy davr, ijtimoiy hayot va milliy qadriyatlarni ifodalovchi badiiy vosita sifatida o’rgandilar. Dilnoza Tulanovaning O’zbekiston manzara rangtasvirining shakllanishiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotida ham aynan XX asr o‘rtalaridagi ijodiy jarayonlar va turli badiiy uslublarning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘rol Tansiqboyev O‘zbekiston professional manzara rangtasvirining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan taniqli rassomlardan biri hisoblanadi. Uning ijodida ona Vatan tabiatining betakror go‘zalligi, kenglik va fazoviy chuqurlik, tabiat hamda inson bunyodkorligi o‘rtasidagi munosabatlar asosiy badiiy mazmunni tashkil etadi.

Rassomning «Jonajon o‘lka» asari o‘zbek manzara rangtasvirining muhim namunalaridan biri bo’lib, unda yurtimiz tabiati, yorug‘lik va havo muhitining o‘zaro uyg‘unligi ta’sirchan ifodalangan. Shuningdek, «Qayroqqum GESi tongi» asarida tabiat manzarasi va inson mehnati natijasida yaratilgan muhandislik inshootlari o‘zaro bog‘liq holda tasvirlangan. Tansiqboyev ijodida yorqin kolorit, keng panoramali kompozitsiya va ranglar vositasida fazoviy muhitni yaratish mahorati alohida ko‘zga tashlanadi. Uning asarlari O‘zbekiston manzara san’atida milliy tabiat obrazini shakllantirish va rangtasvirning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim badiiy ahamiyatga ega.

Nikolay Georgiyevich Karaxan O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan rassomlardan biri bo‘lib, uning ijodida manzara janri o‘ziga xos rangtasvir uslubi bilan ajralib turadi. Rassom asarlarida O‘zbekistonning tog‘li hududlari, vodiylari, qishloq manzaralari va tabiatning mavsumiy o‘zgarishlari keng yoritilgan. Karaxan ijodining muhim jihatlaridan biri tabiat ko‘rinishlarini yorqin ranglar, dekorativ yechimlar va o‘ziga xos kompozitsion qurilish orqali ifodalashidir. Uning manzaralarida tabiatning tashqi go‘zalligi bilan bir qatorda, mahalliy muhitning ruhiyati, inson hayoti va milliy turmush tarziga xos xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi. Rassom tabiatdagi ranglar munosabatini kuzatish orqali oddiy manzara ko‘rinishlariga chuqur badiiy mazmun bag‘ishlay olgan. Shu jihatdan Nikolay Karaxan ijodi O‘zbekiston manzara rangtasvirida milliy kolorit va individual ijodiy uslubning shakllanishini o‘rganishda muhim sanatshunoslik ahamiyatiga ega.

O‘zbekiston rangtasvir san’atining rivojlanishida Rahim Ahmedov va Ne’mat Qo‘ziboyev kabi rassomlarning ijodiy faoliyati ham alohida e’tiborga loyiqdir. Rahim Ahmedov asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlik, milliy hayot manzaralari hamda tabiatning hissiy ta’sirchanligi muhim o‘rin egallaydi. Uning rangtasvir uslubida ranglarning tabiiy uyg‘unligi, yorug‘lik va soya munosabatlari hamda obrazlarning ruhiy mazmunini ochib berishga intilish kuzatiladi.

Ne’mat Qo’ziboyev ijodida esa tarixiy shaharlar, me’moriy obidalar, tabiat manzaralari va milliy muhitni tasvirlashga bo‘lgan qiziqish namoyon bo’ladi. Uning asarlarida tarixiy me’morchilik obyektlarining tabiiy muhit bilan uyg‘unligi, kompozitsion yaxlitlik va ranglarning o‘zaro munosabati muhim badiiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Har ikki rassomning ijodiy merosi O’zbekiston rangtasvirida manzara janrining faqat tabiiy ko‘rinishlarni aks ettirish bilan cheklanmasdan, inson hayoti, milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani ifodalash imkoniyatlariga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston manzara rangtasvirining muhim xususiyatlaridan biri mamlakatimiz tabiati va tarixiy-madaniy muhitiga xos bo‘lgan milliy koloritning badiiy ifodalanishidir. Yurtimizning quyoshli iqlimi, moviy osmoni, keng vodiylari, baland tog‘lari, cho‘l hududlari va qadimiy me’moriy inshootlari rassomlar uchun boy ijodiy imkoniyat yaratadi. Ushbu tabiiy va me’moriy xususiyatlar asarlarda iliq hamda sovuq ranglarning o‘zaro munosabati, yorug‘likning ta’sirchan ifodasi va kompozitsion yaxlitlik orqali namoyon bo‘ladi. Milliy koloritni yaratishda rassom nafaqat mahalliy tabiatga xos ranglardan foydalanadi, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini ham badiiy mazmun bilan uyg‘unlashtiradi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasi aks etgan manzaralarda tabiiy muhit bilan me’moriy merosning o‘zaro aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o’zbek manzara rangtasvirida milliy kolorit tushunchasi ranglarning tashqi uyg‘unligidan tashqari, asarning g‘oyaviy mazmuni va milliy badiiy o‘ziga xosligini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi.

Manzara asarining badiiy mukammalligi, avvalo, kompozitsion tuzilish, fazoviy perspektiva va ranglar uyg‘unligining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqdir. Kompozitsiya tasvir elementlarining muayyan tartibda joylashtirilishini ta’minlab, tomoshabinning e’tiborini asarning asosiy mazmuniga yo‘naltiradi. Perspektiva qonuniyatlari esa yaqin va uzoq masofadagi obyektlarning o’zaro nisbatini belgilash, tasvirda chuqurlik va kenglik taassurotini hosil qilish imkonini beradi. Rangtasvir jarayonida havo perspektivasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uzoqlashgan obyektlarning rang va aniqlik jihatidan o‘zgarishi orqali tabiiy fazoviy muhit yaratiladi. Shuningdek, yorug‘lik va soyaning o‘zaro munosabati, rang tuslari va tonal kontrastlardan foydalanish manzaraning hissiy ta’sirchanligini oshiradi.

O‘zbekiston rassomlari ijodida ushbu tasviriy vositalarning mahorat bilan qo‘llanilishi milliy manzara rangtasvirining texnik va estetik imkoniyatlarini kengaytirgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda milliy tasviriy san’atning mazmuni va badiiy yo‘nalishlarida muayyan yangilanish jarayonlari yuzaga keldi. Ushbu davrda rassomlarning tarixiy meros, milliy o‘zlik, ona Vatan tabiati va xalqning madaniy qadriyatlariga bo‘lgan e’tibori yanada kuchaydi. Manzara janrida ham ijodiy izlanishlar kengayib, an’anaviy realistik tasvirlash usullari bilan bir qatorda dekorativ, ramziy va erkin kompozitsion yechimlardan foydalanish imkoniyatlari rivojlandi. Zamonaviy rassomlar o‘z asarlarida nafaqat tabiiy muhitning tashqi ko‘rinishini, balki ekologik muammolar, urbanizatsiya, tarixiy shaharlarning o‘zgarishi va insonning tabiatga munosabati kabi dolzarb masalalarni ham yoritishga intilmoqdalar. Shuningdek, yangi tasviriy texnologiyalar va turli materiallardan foydalanish manzara janrining ifodaviy imkoniyatlarini yanada boyitmoqda. Natijada mustaqillik davri O‘zbekiston manzara rangtasviri milliy an’analarni davom ettirish bilan birga, zamonaviy badiiy tafakkur va individual ijodiy yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Xulosa:

O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janri mamlakatimizning tabiiy boyliklari, tarixiy-madaniy merosi va milliy estetik qarashlarini badiiy ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrda yaratilgan asarlar orqali tomoshabin yurtimizning turli hududlariga xos tabiiy muhit, tarixiy obidalar va inson hayotining tabiat bilan uzviy bog‘liqligi haqida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘rol Tansiqboyev, Nikolay Karaxan, Rahim Ahmedov va boshqa rassomlarning ijodiy merosi o‘zbek manzara rangtasvirining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim badiiy tajriba vazifasini bajaradi. Ularning asarlarida namoyon bo‘lgan milliy kolorit, rangtasvir mahorati, kompozitsion izlanishlar va tabiatga falsafiy munosabat keyingi avlod rassomlari uchun ijodiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Manzara san’atining yana bir muhim jihati shundaki, u yosh avlodda tabiatni estetik idrok etish, milliy madaniy merosni qadrlash va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga ko’maklashadi. Demak, O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janrining rivojlanishi nafaqat badiiy jarayon, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira va estetik tafakkur taraqqiyoti bilan chambarchas bo’g’liq hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibatova, N. (2022). XIX–XX asr O‘zbekiston rassomlari ijodida manzara janri. Pedagogik mahorat, maxsus son, 67–70-betlar. Elektron manba.

2. Tulanova, D. (2021). Imaginary line in landscape painting of Uzbekistan. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(2), 773–778.

3. Tulanova, D. (2022). Formation and specifics of development of landscape painting in Uzbekistan. European Journal of Arts, 1. Elektron manba.

4. Oydinov, N. (1997). O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. Toshkent: O‘qituvchi.

5. Abdirasilov, S., Tolipov, N., Oripova, N. (2006). Rangtasvir. Toshkent: O‘zbekiston.

6. Abdirasilov, S., Boymetov, B., Tolipov, N. (2012). Tasviriy san’at. Toshkent: Cho‘lpon.